



**LOYIHA JAMOASINI TUZISH VA UNI SAMARALI BOSHQARISH  
BANK MOLIYA AKADEMIYASI**

**Ro'ziyeva Maqsuda Shukurboyevna**

**Annotatsiya:** Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari yetakchi xalqaro reyting agentliklari tomonidan e'tirof etilganligi alohida ta'kidlanishi lozim. Bugungi kunda kompaniyalar zamonaviy loyiha boshqariviga ixtisoslashmoqda. Qadim zamonlarda amaliy faoliyat sifatida paydo bo'lgan va XX asrning ikkinchi yarmida ilmiy va uslubiy intizorn sifatida shakllanishini boshdan kechirgan loyihalarni boshqarish, xalqaro va milliy professional tashkilotlar va standartlar tizimi bilan bir qatorda o'rnatilgan terminologiya va uslublar hamda vositallar to'plamiga ega bo'lgan eng istiqbolli va eng ko'p talab qilingan boshqaruvi uslubiyotiga aylandi.

**Kalit so'zlar:** loyiha, loyiha jamoasi, loyiha boshqaruvi, tashkilotlar, standartlar tizimi, resurslar, nazorat, loyiha maqsadi, tender savdo, risklar, loyiha budgeti.

Loyiha boshqaruvi - bu ma'lum bir maqsadga erishish uchun resurslarni samarali tashkil etish, rejalashtirish va nazorat qilishning muhim jarayonidir. Loyihalar turli sohalarda, jumladan, qurilish, muhandislik, sog'liqni saqlash va moliya kabi sektorlarda keng qo'llaniladi. Loyihaning asosiy xususiyati shundaki, u noyob mahsulot, xizmat yoki natijani yaratishga qaratilgan vaqtinchalik sa'y-harakatdir. Loyihalar katta yoki kichik, oddiy yoki murakkab, arzon yoki juda qimmat bo'lishi mumkin, ammo ularning barchasi samarali boshqaruvni talab qiladi. Loyihaning miqyosi va murakkabligidan qat'iy nazar, puxta rejalashtirish, resurslarni oqilona taqsimlash va doimiy nazorat muvaffaqiyatlari yakunlash uchun kalit hisoblanadi.

Loyihalarni boshqarish usulJari quyidagilarni bajarishga imkon beradi:

- loyihaning maqsadlarini aniqlab olish va uni oqlash;
- loyihaning tuzilishini aniqlash (sub-maqsadlar. amalga oshiriladigan ishlarning asosiy bosqichlari);
- zarur miqdor va manbalarni aniqlash;
- ijrochilarni, xususan, savdo-sotiq va tender savdoni o'tkazish yo'li bilan tanlash;
- shartnomalarni tayyorlash va tuzish;
- loyihaning vaqtini belgilash, uni amalga oshirish rejasini tuzish. kerakli resurslarni hisoblash;
- loyiha byudjeti va smetani hisoblash;
- risklarni rejalashtirish va hisobga olish;
- loyihaning amalga oshirilishi ustidan nazoratni ta'minlash va boshqalar.

Loyihalarni boshqarish ishlarning tarkibi va ko'lami, loyiha ishtirokchilarining xarajatlari, vaqt: sifati va qondirilishi bo'yicha loyihada aniq



natijalarga erishish uchun zamonaviy uslublar, asbob-uskunalatni va boshqaruv texnologiyalarini qoilash orqali uning maqsadlariga samarali erishishga qaratilgan loyiha aylanishi davomida mehnat, moliyaviy va moddiy-texnika resurslarini rejalashtirish, boshqarish. muvofiqlashtirish metodologiyasi.

Zamonaviy sharoitda loyihalarni boshqarish usullar va vositalar to'plami investitsiyalami boshqarishning yuqori samaradorlik metodologiyasini o'zida aks ettirib, quyidagilarga imkon beradi.

- investitsiyalar bozorini tahlil qilish va uning investitsion portfelini shakllantirish, uni rentabellik, xavf va likvidlik mezonlari bo'yicha baholash;
- xavf omillari va noaniqliklarni hisobga olgan holda investitsiyalar samaradorligini baholash;
- investitsiya resurslariga bo'lgan ehtiyojni baholash. qarzga
- olingan va qarz mablaglaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligini baholash bilan kompaniya investitsion resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqish:
- muayyan loyihalaming investitsion jozibadorligini tanlash va baholash;
- individual moliya vositalarining investitsion sifatini baholash va eng samarali vositalarni tanlash;
- muayyan investitsiya loyihalari va dasUirlarini amalga oshirishni rejalashtirish va tezkor boshqarish;
- xaridlar va ta'minot tartibini, shuningdek loyiha sifatini boshqarishni tashkil etish;
- investitsion jarayonni samarali amalga oshirishni, shu jumladan o'zgarishlarni boshqarish va samarasiz loyihalarni o'z vaqtida yopish (ayrim moliyaviy vositalarni solish) va kapitalni qayta investitsiyalash bo'yicha qarorlar tayyorlash;
- loyihani tugallashni tashkil etish. ko'pincha loyihaning umuman bajarilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan investitsiya boshqaruvining psixologik aspektlarini to'liq hisobga olish.

### Xulosa

Ilm-fan va texnika yutuqlarini keng qo'llagan holda iqtisodiyot tarmoqlariga ijtimoiy va boshqa sohalarga zamonaviy innovatsion texnologiyaiarni tezkor joriy etish O'zbekiston Respublikasi jadal rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda rahbarlar har doim, har bir faoliyatida turli xildagi nizolarni, qarama-qarshilik va ziddiyatlarni bartaraf qilishga to'g'ri keladi. Ularni qanchalik oson hal qilsa, ish shunchalik unumli, natijasi yaxshi bo'ladi. Rahbar faoliyatidagi ish unumdarligi vujudga kelgan qarama-qarshilik, ziddiyat, nizoni qanchalik tez va qulay yo'llar bilan hal qilganligiga bog'liq bo'ladi. Shunda rahbar va jamoa ishida unum va samara bo'lishiga erishiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



1. O.SH.Mamanazarova “Loyiha boshqaruvi” (O’quv qo’llanma) Toshkent “Ijod-Press” 2019.
2. Управление проектами: учеб. пособие / под ред. д-ра техн. наук, проф. В. И. Денисенко, д-ра экон. наук. проф. Н. М-Филимоновой; Владим. гос. ун-т им. А. Г. и Н. Г. Столетовых.
3. Владимир: Изд-во ВлГУ, 2015. - 108 с.
4. M.Sharifxo'jayev, Yo.Abdullayev. Menejrnent. O'quv qo'llanma. Toshkent - 2001-y.
5. R.X.Ergashev, S.R.Xalikov, A.J.Toshibayev. I nn ovatsion iqtisodiyot: Darslik / - Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2019-y. 200

